

**IQTISODIY VA EKOLOGIK MANFAATLAR MUVOZANATINI  
TA'MINLASHNING FALSAFIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDAGI  
AHAMIYATI**

**Ashurov Abror Uralovich,**

*University of Business and Science Toshkent filiali Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası mudiri,  
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
[abrordavrontemur@gmail.com](mailto:abrordavrontemur@gmail.com)*

***Annotatsiya.** Ushbu ilmiy maqolada iqtisodiy va ekologik manfaatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash muammosi falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Zamonaviy globallashtirish sharoitida iqtisodiy o'sishning jadallashuvi ko'pincha ekologik muammolarni keskinlashtirayotgani, natijada jamiyat va tabiat o'rtasidagi uyg'unlik izdan chiqayotgani asoslab beriladi. Tadqiqotda iqtisodiy manfaat, ekologik qadriyat va muvozanat kategoriyalarining falsafiy mohiyati yoritilib, ularning o'zaro dialektik bog'liqligi ochib beriladi. Shuningdek, barqaror taraqqiyot konsepsiyasi doirasida ushbu muvozanatni ta'minlashning nazariy va amaliy asoslari ko'rib chiqiladi. Unda iqtisodiy va ekologik manfaatlar uyg'unligini ta'minlash inson tafakkurining yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qilishi, xususan, tizimli, kompleks va mas'uliyatli fikrlashni shakllantirishda muhim omil ekanini qayd etiladi. Maqolada ekologik ong va madaniyatni rivojlantirish, ta'lim tizimida integrativ yondashuvlarni joriy etish orqali falsafiy tafakkurni boyitish imkoniyatlari ham tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari iqtisodiy rivojlanish va ekologik xavfsizlik o'rtasida muvozanatni ta'minlash nafaqat amaliy zarurat, balki falsafiy tafakkur taraqqiyotining muhim sharti ekanini ko'rsatadi.*

***Kalit so'zlar:** eko-falsafa, iqtisodiyot, tafakkur, ekologik muvozanat, barqaror taraqqiyot, rivojlanish, ong, qadriyat, jamiyat, xavfsizlik, integratsiya, mas'uliyat, innovatsiya.*

***Аннотация.** В данной научной статье проблема обеспечения баланса между экономическими и экологическими интересами анализируется с философской точки зрения. Обосновывается, что в условиях современной глобализации ускорение экономического роста зачастую обостряет экологические проблемы, в результате чего нарушается гармония между обществом и природой. В исследовании освещается философская сущность категорий экономического интереса, экологической ценности и равновесия, раскрывается их диалектическая взаимосвязь. Также в рамках концепции устойчивого развития рассматриваются теоретические и практические основы обеспечения этого баланса. В нем отмечается, что обеспечение гармонии экономических и экологических интересов служит подъему человеческого мышления на новый уровень, в частности, является важным фактором формирования системного, комплексного и ответственного мышления. В статье также анализируются возможности развития экологического сознания и культуры, обогащения философского мышления путем внедрения интегративных подходов в систему образования. Результаты исследования показывают, что обеспечение баланса между экономическим развитием и экологической безопасностью является не только практической необходимостью, но и важным условием развития философского мышления.*

***Ключевые слова:** эконо-философия, экономика, мышление, экологический баланс, устойчивое развитие, развитие, сознание, ценность, общество, безопасность, интеграция, ответственность, инновации.*

***Abstract.** This scientific article analyzes the problem of ensuring a balance between economic and environmental interests from a philosophical perspective. It is substantiated that in the context of modern globalization, the acceleration of economic growth often exacerbates environmental problems, resulting in the disruption of harmony between society and nature. The study highlights the philosophical essence of the categories of economic interest, ecological value, and balance, revealing*

*their dialectical interconnection. It also examines the theoretical and practical foundations for ensuring this balance within the framework of the concept of sustainable development. It is noted that ensuring the harmony of economic and environmental interests serves to raise human thinking to a new level, in particular, it is an important factor in the formation of systemic, complex and responsible thinking. The article also analyzes the possibilities of enriching philosophical thinking through the development of ecological consciousness and culture, and the introduction of integrative approaches in the education system. The research findings demonstrate that ensuring a balance between economic development and environmental security is not only a practical necessity but also a vital prerequisite for the development of philosophical thinking.*

**Keywords:** *eco-philosophy, economy, thinking, ecological balance, sustainable development, consciousness, value, society, security, integration, responsibility, innovation.*

**Kirish.** Zamonaviy globallashuv jarayonlari sharoitida insoniyat taraqqiyoti tobora murakkablashib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik muammolar bilan chambarchas bog‘lanmoqda. Ayniqsa, iqtisodiy o‘shishga intilish ko‘plab hollarda tabiiy resurslardan haddan tashqari foydalanish, atrof-muhitning ifloslanishi va ekologik muvozanatning buzilishiga olib kelmoqda. Natijada iqtisodiy manfaatlar bilan ekologik talablar o‘rtasida keskin ziddiyat yuzaga kelmoqda. Ushbu holat nafaqat amaliy muammo sifatida, balki chuqur falsafiy tahlilni talab etadigan masala sifatida ham namoyon bo‘ladi. Bugungi kunda iqtisodiy va ekologik manfaatlar uyg‘unligini ta‘minlash barqaror taraqqiyotning muhim sharti sifatida e‘tirof etilmoqda. Chunki inson va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni anglash, ularga nisbatan ongli va mas‘uliyatli munosabatni shakllantirish jamiyat rivojining yangi bosqichini belgilab beradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, iqtisodiy-ekologik muvozanatni ta‘minlash masalasi falsafiy tafakkurning rivoji bilan uzviy bog‘liqdir. Zero, mazkur muvozanat inson tafakkurida tizimli yondashuv, dialektik fikrlash va kompleks tahlil ko‘nikmalarini shakllantiradi. Mazkur ilmiy maqolaning maqsadi iqtisodiy va ekologik manfaatlar o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlashning falsafiy asoslarini ochib berish hamda uning falsafiy tafakkur rivojiga ta‘sirini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot jarayonida tizimli, dialektik va komparativ yondashuvlardan foydalanildi. Shuningdek, zamonaviy ekologik muammolar va iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganildi. Natijada iqtisodiy va ekologik manfaatlar o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlash nafaqat amaliy zarurat, balki inson tafakkurining yangi sifat bosqichiga ko‘tarilishining muhim omili ekanligi asoslab beriladi.

**Muhokama va natijalar.** Iqtisodiy va ekologik manfaatlar masalasi zamonaviy falsafiy tafakkurning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiy manfaat tushunchasi tarixan insonning moddiy ehtiyojlarini qondirish, resurslardan samarali foydalanish va farovonlikka erishish bilan bog‘liq holda shakllangan. Klassik siyosiy iqtisod vakillari, xususan, A. Smith iqtisodiy manfaatni shaxsiy foyda va bozor mexanizmlari orqali izohlagan [1]. Zamonaviy davrdagi yondashuvlarda esa ushbu

tushuncha ijtimoiy mas’uliyat, ekologik cheklovlar va barqaror rivojlanish tamoyillari bilan boyitilmoqda. Bu holat iqtisodiy manfaatni tor utilitar yondashuvdan chiqarib, kengroq ijtimoiy-falsafiy kontekstda talqin qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Ekologik manfaat esa tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va kelajak avlodlar manfaatlarini ta’minlash bilan chambarchas bog’liqdir. Bu borada H. Jonas tomonidan ilgari surilgan “mas’uliyat etikasi” konsepsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi [2]. Unga ko’ra, inson o’z faoliyati natijalarini nafaqat hozirgi, balki kelajak avlodlar nuqtai nazaridan ham baholashi lozim. Shuningdek, ekologik manfaatlar antropotsentrik yondashuvdan ekotsentrik qarashlarga o’tishni talab etadi, ya’ni tabiatni faqat resurs sifatida emas, balki mustaqil qadriyat sifatida tan olish zarur. Iqtisodiy va ekologik manfaatlar o’rtasidagi o’zaro munosabat dialektik xarakterga ega bo’lib, ular bir-birini inkor etuvchi emas, balki o’zaro to’ldiruvchi kategoriyalar sifatida namoyon bo’ladi. Bu jarayonda qarama-qarshilik va uyg’unlik birgalikda mavjud bo’ladi. K. Marks dialektikasiga ko’ra, har qanday rivojlanish ichki ziddiyatlar orqali yuzaga keladi va aynan shu ziddiyatlar yangi sifat bosqichiga o’tish imkonini yaratadi [3]. Shu nuqtai nazardan qaraganda, iqtisodiy va ekologik manfaatlar o’rtasidagi ziddiyat barqaror taraqqiyot konsepsiyasining shakllanishiga turtki bo’lgan muhim omillardan biridir. Bugungi kunda barqaror rivojlanish konsepsiyasi iqtisodiy o’sish, ijtimoiy adolat va ekologik xavfsizlikning uyg’unligini ta’minlashni nazarda tutadi. Bu g’oya ilk bor World Commission on Environment and Development tomonidan ishlab chiqilgan “Bizning umumiy kelajagimiz” hisobotida keng yoritilgan [5]. Shuningdek, global ekologik muammolar chegaralangan resurslardan foydalanish zarurati bilan bog’liq ekanligi D. Meadows tadqiqotlarida asoslab berilgan [4]. Demak, iqtisodiy va ekologik manfaatlar o’rtasidagi muvozanatni ta’minlash masalasi nafaqat amaliy, balki chuqur falsafiy mazmunga ega bo’lib, zamonaviy tafakkurning rivojlanishida muhim o’rin tutadi.

Muvozanat tamoyili falsafada muhim metodologik kategoriyalardan biri bo’lib, u borliqdagi turli jarayon va hodisalarning o’zaro uyg’unligi, barqarorligi hamda tizimlilikini ifodalaydi. Ushbu tushuncha qadimgi davrlardan boshlab falsafiy tafakkur markazida bo’lib kelgan. Xususan, Aristotel tomonidan ilgari surilgan “oltin o’rtalik” g’oyasi inson faoliyatida me’yor va muvozanatni saqlash zarurligini asoslaydi [6]. Bu yondashuv keyinchalik ijtimoiy va tabiiy jarayonlarni tahlil qilishda universal metod sifatida qo’llanila boshladi. Zamonaviy davr falsafasida muvozanat tushunchasi dialektik yondashuv bilan chambarchas bog’liqdir. Hegel ta’limotiga ko’ra, har qanday rivojlanish qarama-qarshiliklarning o’zaro kurashi va ularning muayyan bosqichda uyg’unlashuvi orqali yuzaga keladi [7]. Bu jarayonda muvozanat statik holat emas, balki dinamik tizim sifatida namoyon bo’ladi. Ayniqsa, iqtisodiy va ekologik manfaatlar

o‘rtasidagi munosabatda ushbu dialektik jarayon yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ularning o‘zaro ziddiyati bir vaqtning o‘zida yangi sifat – barqaror rivojlanish modelining shakllanishiga xizmat qiladi. Iqtisodiy-ekologik muvozanatni ta‘minlash mexanizmlari zamonaviy jamiyat taraqqiyotida muhim o‘rin egallaydi. Bu borada “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi alohida ahamiyatga ega bo‘lib, u iqtisodiy o‘sishni ekologik xavfsizlik bilan uyg‘unlashtirishni nazarda tutadi. BMTning Barqaror taraqqiyot dasturida tomonidan ilgari surilgan ushbu yondashuv resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishga qaratilgan [8]. Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalar va ekologik siyosat vositalari muvozanatni ta‘minlashning amaliy mexanizmlari sifatida namoyon bo‘ladi. Muvozanat tamoyilining ta‘minlanishi inson tafakkurining rivojlanishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Chunki iqtisodiy va ekologik manfaatlarni uyg‘unlashtirish jarayoni insondan tizimli, kompleks va mas‘uliyatli fikrlashni talab etadi. Bu esa falsafiy tafakkurning yangi sifat darajasiga ko‘tarilishiga olib keladi. E. Morin tomonidan ilgari surilgan kompleks fikrlash nazariyasi aynan shunday integrativ yondashuvni asoslab beradi [9]. Unga ko‘ra, murakkab muammolarni hal etishda turli bilim sohalarini birlashtirish zarur. Demak, muvozanat tamoyili nafaqat iqtisodiy va ekologik jarayonlarni tartibga soluvchi vosita, balki inson tafakkurini rivojlantiruvchi muhim falsafiy omil ham hisoblanadi. U orqali jamiyatda mas‘uliyatli ong, global fikrlash va barqaror taraqqiyotga yo‘naltirilgan dunyoqarash shakllanadi.

Zamonaviy jamiyat taraqqiyotida iqtisodiy va ekologik manfaatlar o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlash global ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi va ekologik inqirozlar insoniyat oldida dolzarb muammolar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu jarayonlar iqtisodiy faoliyatning ekologik oqibatlarini chuqur tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Xususan, Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha hukumatlararo kengash hisobotlarida iqlim o‘zgarishining asosiy sababi sifatida insonning xo‘jalik faoliyati ko‘rsatib o‘tilgan [10]. Shu bois iqtisodiy rivojlanish modelini qayta ko‘rib chiqish va uni ekologik talablar bilan uyg‘unlashtirish muhim vazifaga aylanmoqda. Milliy darajada ham iqtisodiy-ekologik muvozanatni ta‘minlash strategik ahamiyatga ega. Xususan, O‘zbekistonda so‘nggi yillarda ekologik muammolarni hal etish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Suv resurslaridan samarali foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirish va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha davlat siyosati muvozanatni ta‘minlashga xizmat qilmoqda. Bu jarayon jamiyatda ekologik ong va mas‘uliyatni shakllantirish bilan uzviy bog‘liqdir. Iqtisodiy va ekologik manfaatlar uyg‘unligini ta‘minlash ta‘lim va ilm-fan sohasida ham muhim o‘rin tutadi. Zamonaviy ta‘lim tizimida ekologik bilimlarni iqtisodiy va falsafiy

yondashuvlar bilan integratsiya qilish zarurati ortib bormoqda. U. Bek tomonidan ilgari surilgan “risk jamiyati” nazariyasiga ko‘ra, zamonaviy jamiyat global xavflar sharoitida yashaydi va bu esa yangi turdagi tafakkur – mas’uliyatli va prognoz qiluvchi fikrlashni talab etadi [11]. Shu sababli talabalarda tizimli va tanqidiy tafakkurni shakllantirish orqali iqtisodiy-ekologik muvozanatni anglash imkoniyati kengayadi. Demak, iqtisodiy va ekologik manfaatlar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash zamonaviy jamiyatda nafaqat amaliy ehtiyoj, balki barqaror taraqqiyotning muhim sharti sifatida namoyon bo‘ladi. Bu jarayon inson tafakkurining rivojlanishiga, global muammolarni anglash va ularni hal etishga yo‘naltirilgan yangi dunyoqarashning shakllanishiga xizmat qiladi.

**Xulosa.** Mavzu asosida olib borilgan o‘rganishlar natijasida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Iqtisodiy va ekologik manfaatlar o‘rtasidagi munosabat zamonaviy jamiyat taraqqiyotining eng dolzarb muammolaridan biri bo‘lib, u nafaqat amaliy, balki chuqur falsafiy mazmunga ega. Iqtisodiy o‘shish va ekologik xavfsizlik o‘rtasidagi ziddiyat global miqyosda yangi yondashuvlarni talab etadi.

2. Nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy manfaatlar insonning moddiy ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, ekologik manfaatlar tabiat va kelajak avlodlar barqarorligini ta’minlashga qaratilgan. Ularning o‘zaro uyg‘unligi barqaror rivojlanish konsepsiyasining asosiy sharti hisoblanadi.

3. Muvozanat tamoyili falsafiy kategoriya sifatida iqtisodiy va ekologik jarayonlarni bir butun tizim sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi. Dialektik yondashuv nuqtai nazaridan ushbu qarama-qarshiliklar rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo‘ladi.


4. Zamonaviy ilmiy va siyosiy yondashuvlar iqtisodiy-ekologik muvozanatni ta’minlashda “yashil iqtisodiyot”, ekologik siyosat va innovatsion texnologiyalar muhim rol o‘ynashini ko‘rsatmoqda. Bu jarayon jamiyatda ekologik ong va mas’uliyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

5. Umuman olganda, iqtisodiy va ekologik manfaatlar muvozanatini ta’minlash falsafiy tafakkurni rivojlantiruvchi muhim omil bo‘lib, u insonda tizimli fikrlash, global yondashuv va mas’uliyatli dunyoqarashni shakllantiradi. Bu esa barqaror taraqqiyot sari yo‘naltirilgan jamiyat rivojining asosiy sharti hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Smith A. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. – London: W. Strahan and T. Cadell, 1776.
2. Jonas H. The Imperative of Responsibility: In Search of an Ethics for the Technological Age. – Chicago: University of Chicago Press, 1984.
3. Marx K., Engels F. Selected Works. – Moscow: Progress Publishers, 1970.
4. Meadows D.H., Meadows D.L. The Limits to Growth. – New York: Universe Books, 1972.
5. WCED. Our Common Future. – Oxford: Oxford University Press, 1987.

6. Aristotle. *Nicomachean Ethics*. – Oxford: Oxford University Press, 2009.
7. Hegel G.W.F. *Phenomenology of Spirit*. – Oxford: Oxford University Press, 1977.
8. UNEP. *Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication*. – Nairobi: United Nations, 2011.
9. Morin E. *On Complexity*. – Cresskill: Hampton Press, 2008.
10. IPCC. *Climate Change 2021: The Physical Science Basis*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2021.
11. Beck U. *Risk Society: Towards a New Modernity*. – London: Sage Publications, 1992.



**UNIVERSITY  
OF BUSINESS  
AND SCIENCE**